borg Baldauf tarjimada nemis tili sintaktik qoidalariga qat'iy amal qilgan holda es olmoshini formal subyekt yoki idiomatik konstruksiya tarkibida qo'llagan. O'zbek tilida esa bu kabi holatlar leksik, semantik va kontekstual vositalar orqali ifodalanadi. Demak, es olmoshi tarjimada mazmunni emas, balki gapning grammatik tuzilishini ta'minlashga xizmat qilgan.

**Xulosa.** Xulosa qilib aytganda, "Chayon yili" romani tarjimasida es olmoshining qo'llanilishi nemis tilining analitik xususiyatlari bilan izohlanadi. O'zbek tilida bunday formal subyekt kategoriyasining mavjud emasligi esa ikki til o'rtasidagi tipologik farqni yanada oydinlashtiradi. Bu holat nemis tilidan o'zbek tiliga va aksincha tarjima jarayonida semantik adekvatlikni saqlagan holda grammatik moslashuv qanday amalga oshirilishini yaqqol namoyon etadi. Qiyosiy tahlil natijalari shuni ko'rsatadiki, nemis tili sodda gap tarkibida kelgan es shaxssiz olmoshi, asosan, grammatik funktsiyani bajaradi va gapning formal tuzilishini ta'minlaydi. O'zbek tilida esa bunday formal subyekt kategoriyasi mavjud emas. Shu sababli nemis tilidan o'zbek tiliga tarjima jarayonida es olmoshi, ko'p hollarda, nol tarjima orqali beriladi.

Mazkur farq ikki tilning tipologik xususiyatlari bilan bog'liq bo'lib, analitik va agglyutinativ tillar o'rtasidagi asosiy tafovutlarni yaqqol namoyon etadi. Bu tahlil nemis va o'zbek tillari o'rtasidagi sintaktik va semantik farqlarni ko'rsatadi hamda badiiy tarjimaning nazariy asoslari uchun muhim ilmiy xulosa hisoblanadi.

**Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:**


(1). Grimm J. Deutsche Grammatik. Göttingen: Dieterichsche Buchhandlung, 1822, Bd. 1, 695 s.

(2). Helbig G., Buscha J. Deutsche Grammatik: Ein Handbuch für den Ausländerunterricht. Berlin, München, Langenscheidt, 2001, 654 s.

(3). Duden Die Grammatik: Unentbehrlich für richtiges Deutsch. 9., völlig neu bearb. Aufl. Berlin, Dudenverlag, 2016 (Duden; Bd. 4), 1344 s.

(4). Шендельс Е.И. Грамматика немецкого языка: Синтаксис. Москва, "Высшая школа", 1988, 320 с.

(5). Айзенберг П. Проблемы безличных предложений в немецком языке. Вопросы германского языкознания. Москва, "Наука", 1985, 112–126 с.

(6). Адмони В.Г. Синтаксис современного немецкого языка. Ленинград, "Наука", 1973, 365 с.

(7). Rahmatullaev Sh. O'zbek tilining grammatik tuzilishi. Toshkent, "Fan", 1990, 280-bet.

(8). Mirsoatov T.Z. Deutsche Grammatik. Nemis tili grammatikasi. Morfologiya, Toshkent, « O'qituvchi », 1987, 274-bet.

(9). Nazarov U. Chayon yili. Toshkent, "Sharq", 2010, 320-bet.

(10). Baldauf I. Das Jahr des Skorpions. Berlin, Aufbau Verlag, 2018, 384 s.



**Xudaybergenova Gulbaxor Shuxrat qizi (Abu Rayhon Beruniy nomidagi Urganch davlat universiteti "Roman-german filologiyasi" kafedrasi tayanch doktoranti; gulbaxorxudaybergenova97@gmail.com); ORCID: 0009-0006-3394-7876)**


## O'ZBEK PAREMIYALARIDA ISH KONSEPTI ORQALI JAMOATCHILIK MENTALITETINING AKS ETISHI


***Annotatsiya.*** *Ushbu maqolada o'zbek paremiyalarida "ish" konsepti orqali xalqning jamoatchilik ruhiyati va mehnatga munosabatining ifodalanishi lingvomadaniy jihatdan tahlil qilinadi. Tadqiqotda paremiologik birliklar semantik, konseptual va madaniy qatlamlarda o'rganilib, ularning xalq tafakkuridagi jamoaviylik, o'zaro yordam va hasharchilik qadriyatlarini aks ettirish mexanizmlari ochib beriladi. Maqolada "ish" konsepti o'zbek milliy mentalitetida qanday ijtimoiy-ma'naviy mazmun kasb etishi tahlil etiladi.*



***Kalit so'zlar****: ish, konsept, paremiya, lingvomadaniyat, qadriyat, jamoatchilik, hashar, an'ana.*



**Худайбергенова Гулбахор Шухрат қизи (докторант кафедры "Романо-германская филология" Ургенчского государственного университета)**


## ОТРАЖЕНИЕ ОБЩЕСТВЕННОГО МЕНТАЛИТЕТА ЧЕРЕЗ КОНЦЕПТ «ТРУД» В УЗБЕКСКИХ ПАРЕМИЯХ


***Аннотация****. В данной статье с лингвокультурологической точки зрения анализируется выражение общественного сознания народа и его отношения к труду через концепт «труд» в узбекских паремиях. В ходе исследования паремиологические единицы рассматриваются в семантическом, концептуальном и культурном аспектах, раскрываются механизмы отражения в народном мышлении ценностей коллективизма, взаимопомощи и традиций хашара. В статье также анализируется социально-нравственное содержание, которое приобретает концепт «труд» в узбекском национальном менталитете.*



***Ключевые слова:*** *труд, концепт, паремия, лингвокультура, ценность, общественность, хашар, традиция.*

**Khudaybergenova Gulbakhor Shukhrat kizi (basic doctoral student of the Department of "Romano-Germanic Philology" of Urgench State University)**

# THE REFLECTION OF SOCIAL MENTALITY THROUGH THE CONCEPT OF WORK IN UZBEK PAREMIAS

***Annotation.*** *This article examines how the concept of "work" in Uzbek proverbs reflects the communal mindset and attitudes toward collective labor in Uzbek culture. Through a linguocultural and conceptual analysis, the study explores the semantic and cultural layers of paremic units that represent values of cooperation, mutual assistance, and traditional "hashar" practices. The paper reveals how the concept of "work" serves as a pivotal component of the Uzbek national mentality and moral worldview.*

***Keywords:*** *work, concept, paremia, linguoculture, value, community, collective voluntary work, tradition.*

**Kirish.** O'zbek lingvomadaniyatida "ish/ishbilarmonlik" konsepti nafaqat iqtisodiy faoliyatni, balki ijtimoiy mas'uliyat, halollik, hurmat va shaffoflik kabi axloqiy qadriyatlar tizimini ham o'zida mujassam etadi. Bu konseptda tashkilot ichida aniqlik va shaffoflikni ta'minlash mezoni muhim o'rin tutadi. Ish jarayonlarini ochiq va aniq tashkil etish, xodimlarga vazifalarni tushunarli tarzda yetkazish o'zbek madaniyatidagi tartib-intizom va aniqlikka intilish an'analarini ifodalaydi. Shu bilan birga, xodimlar va hamkorlar bilan hurmatli munosabatda bo'lish g'oyasi jamoaviylik, insoniylik hamda o'zaro ishonch tamoyillariga tayanadi. O'zbek ish muhitida inson qadri, samimiy aloqa va muomala madaniyati mehnat samaradorligini belgilovchi asosiy omil sifatida qaraladi.

**Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili.** O'zbek tilining izohli lug'atida ish so'zining quyidagi ma'nolari farqlanadi: Inson faoliyati bilan bog'liq, uning mehnati bilan amalga oshadigan, bajariladigan narsa; ishning ijrosi, ish ustidagi faoliyat, mehnat; ish-faoliyatning mahsuli, undan yuzaga kelgan (yaratilgan) narsa; ma'lum haq, evaz hisobiga qilinadigan ish-faoliyat, mehnat; xizmat vazifasi; lavozim. Bo'sh ish o'rni; mehnat-faoliyatning muayyan sohasi, turi; kasb; burch; hal etilishi lozim bo'lgan narsa; masala, muammo; o'zgaga, o'zga manfaatiga qarashli yumush; hojat; xos ish, xatti-harakat; voqea, hodisa; ahvol, holat; gap-so'z, gap-so'z bo'lgan narsa(lar); sud 15. huq. Sud yoki ma'muriy organlarda ko'riladigan narsa, jarayon[1] Ish konseptining lingvomadaniy tahlil bu so'zning paremiyalardagi qo'llanilishi qanday imkonyatlarini ochib beradi.

O'zbek xalq paremiologiyasida "ish" va "ishbilarmonlik" konsepti, ko'pincha, jamoatchilik bilan birga ishlash, hamjihatlikka tayangan mehnat g'oyalari orqali talqin qilinadi. "Ikki qo'l qilgan ishni bir qo'l qilolmas", "Ko'p ko'makka yaxshi, oz barakka", "Ko'pning ishi yitmas, ozning ishi bitmas", "Ko'pning qo'li ko'p"[2] kabi maqollar o'zbek milliy tafakkurida mehnat jarayonining kollektivlik tamoyiliga asoslanishini ifodalaydi. Bu paremiyalar o'zbek madaniyatida mehnatning ijtimoiy mohiyati, ya'ni inson faoliyatining jamoa bilan o'zaro bog'liq va muvofiqlashtirilgan holda kechishini ta'kidlaydi. Shu jihatdan, jamoaviylik mehnat samaradorligini oshiruvchi, ijtimoiy birdamlikni mustahkamlovchi va mas'uliyatni bo'lishuvchi qadriyat sifatida konseptual ahamiyat kasb etadi.

**Tahlil va natijalar.** Nazariy jihatdan bu holat lingvomadaniy birliklardagi kollektivizm semasi orqali ifodalanadi. O'zbek madaniy modelida ish jarayoni alohida shaxsning emas, balki jamoaning birgalikdagi harakati sifatida talqin qilinadi. Kollektiv mehnatning ustuvorligi o'zbek xalqining tarixiy xo'jalik tizimi – dehqonchilik, hunarmandchilik va suv taqsimotiga asoslangan kooperativ mehnat shakllari bilan chambarchas bog'liq. Shu bois o'zbek paremiyalaridagi "ko'p" va "bir" oppozitsiyasi semantik jihatdan faqat son ma'nosida emas, balki ijtimoiy kuch va birdamlik ramzi sifatida namoyon bo'ladi. Natijada, "birlikda baraka, yakdillikda kuch" degan umumlashtirilgan semantik g'oya o'zbek ishbilarmonlik konseptining asosiy madaniy-me'yoriy tamoyillaridan biri sifatida shakllanadi.

O'zbek lingvomadaniyatida "ish" konsepti semantik jihatdan neytral bo'lib, u shaxsiy manfaatga qaratilgan salbiy faoliyatni ham, el-yurt manfaati yo'lida qilinadigan ijobiy mehnatni ham qamrab oladi. "O't bilan o'ynashmoq tentakning ishi, yurt bilan o'ynashmoq ahmoqning ishi"[3] paremiyasida ishning maz-muni va yo'nalishi asosiy baholash mezoni sifatida namoyon bo'ladi: "o't" – xavfli, nazoratsiz kuch, "yurt" esa muqaddas, daxlsiz qadriyat sifatida talqin qilinadi. Shunga ko'ra, o't bilan "o'ynashish" beaql,

[1] www.izoh.uz

[2] Mirzayev T., Musoqulov A., Sarimsoqov B. O'zbek xalq maqollari (tuzuvchilar: mas'ul muharrir: Sh.Turdimov. T., «Sharq», 2016, 18-bet.

[3] Mirzayev T., Musoqulov A., Sarimsoqov B. O'zbek xalq maqollari (tuzuvchilar: mas'ul muharrir: Sh.Turdimov. T., «Sharq», 2016, 22-bet.

lekin faqat o‘ziga zarar yetkazishi mumkin bo‘lgan tavakkal ish bo‘lsa, yurt bilan “o‘ynashish” jamiyat, el man-faati bilan masxaralash darajasidagi ma’naviy-axloqiy jinoyat sifatida baholanadi. Bu yerda ish konsepti el manfaatiga zid bo‘lganda keskin salbiy konnotatsiya kasb etadi va bunday faoliyat soyaboni ostida “tentak”, “ahmoq” kabi kognitiv-etiket birliklar yuzaga keladi.

“Qo‘lidan ish kelmagan ma’raka buzar” maqolida ish qila olmaslik nafaqat kasbiy no‘noqlik, balki ijtimoiy uyg‘unlikni, birlik va hamjihatlikni buzuvchi omil sifatida talqin qilinadi. Ma’raka – jamoaviy marosim, ijtimoiy birlik va hamjihatlik maydoni bo‘lib, uni “buzish” qo‘lidan foydali ish kelmaslik, jamiyat uchun samarasiz, hatto zararli bo‘lish ramziga aylanadi. Demak, ishning ijobiy baholanishi nafaqat shaxsiy mahorat bilan, balki ushbu mahoratning ijtimoiy kontekstdagi foydasi bilan belgilanadi.

“Har ish qilsang, el bilan kengash” paremiyasi ish konseptining o‘zbek lingvomadaniyatida individual emas, balki jamoaviy-nazoratli va maslahatga tayangan hodisa ekanini ko‘rsatadi. Kengashish el tajribasi, aqli va ijtimoiy mas’uliyatini ish jarayoniga qo‘shish demakdir. Bu yerda ishning mazmunini belgilovchi asosiy tamoyil – uning el manfaatiga mosligi va jamoa tomonidan ma’qullanishidir. “Erning ishi el bilan” maqoli esa bu g‘oyani yanada normativ shaklga keltiradi: haqiqiy “er” (ya’ni yetuk, mas’uliyatli shaxs) o‘z faoliyatini eldan ajratmaydi, ishini el bilan, el manfaati yo‘lida va el roziligi bilan olib boradi. Shu tarzda, ko‘rib chiqilgan paremiyalar tizimi shuni ko‘rsatadiki, o‘zbek lingvomadaniyatida ishning semantik neytralligi faqat potensial darajada: u mazmuniga ko‘ra el-yurt manfaatiga xizmat qilganida ijobiy baholanadi, aks holda esa “tentakning ishi”, “ahmoqning ishi”, “ma’raka buzar” kabi keskin salbiy baho oladi. Natijada “ish” konsepti pragmatik jihatdan el manfaatiga yo‘naltirilgan, jamoaviy maslahatga tayangan, ijtimoiy mas’uliyat bilan uyg‘unlashgan faoliyat modeli sifatida normativlashtiriladi; bu esa o‘zbek paremiologiyasida ishning shunchaki kasbiy yoki iqtisodiy jarayon emas, balki ma’naviy-axloqiy va jamoaviy qadriyatlar bilan bog‘liq kompleks lingvokulturologik hodisa ekanini tasdiqlaydi.

O‘zbek ish/ishbilarmonlik konseptining muhim lingvokulturologik belgilaridan biri sifatida “hashar” tushunchasi alohida e’tiborga molik bo‘lib, u faqat mehnat shakli emas, balki el-yurt manfaatiga yo‘naltirilgan jamoaviy faoliyat modeli sifatida qaraladi. O‘zbek tilining lug‘atlarda “hashar”, odatda, ko‘pchilikning ko‘ngilli ravishda, bepul, umumiy manfaat uchun bir joyga yig‘ilib, ma’lum ishni (uy-joy qurish, ariqlarni tozalash, jamoat ishlarini bajarish va hokazo) birgalikda ado etishi[1] tarzida izohlanadi; bu talqin uning iqtisodiy emas, avvalo ijtimoiy va axloqiy mohiyatini ko‘rsatadi. Shu ma’noda “hashar” o‘zbek lingvomadaniyatida mehnatning jamoaviylik, hamjihatlikka asoslangan, o‘zaro yordam va birdamlikni ifoda etuvchi konseptual na’muna sifatida talqin etiladi.

O‘zbek lingvomadaniyatida hashar el manfaatiga qaratilgan, “bepul mehnat”ni emas, balki “birlikda savob ish qilish”ni anglatadi. U mahalla, qishloq, qarindosh-urug‘ va butun jamoaning ijtimoiy birdamligi, “hech bir xonadon ortda qolmasin” degan tamoyilning amaliy ko‘rinishi sifatida qabul qilinadi. Ingliz madaniyatidagi ko‘ngillilik esa ko‘proq institutlashgan xayriya, nodavlat tashkilotlar faoliyati, individual fuqarolik mas’uliyati bilan bog‘lanadi, odatda, huquqiy, tashkiliy, grant yoki loyihaviy mexanizmlar bilan tartibga solinadi. O‘zbekcha hashar esa kundalik ijtimoiy hayotning ichki, an’anaviy “normasi” sifatida qabul qilinadi.

Paremiologik jihatdan “Hashar borsam bitar, ingranib kunim o‘tar”, “Hashar – elga yarashar”, “Hashar qildim – uy qurdim, unda ko‘p hikmat ko‘rdim” kabi birliklar hasharni ishning tez bitishi, baraka topishi, elga yarashadigan, ya’ni, milliy xarakterga mos shakl sifatida idealizatsiya qiladi. Bunda asosiy semantik markaz – “el bilan bo‘lish”, “elga yarashish” va “hasharda hikmat ko‘rish” g‘oyalari hisoblanadi. Hashar o‘zbek ish/ishbilarmonlik konseptining ingliz madaniyati bilan solishtirganda alohida ajralib turadigan, madaniyatga xos (culture-specific) hodisa sifatida namoyon bo‘ladi. U, avvalo, iqtisodiy samaraga emas, balki ijtimoiy birdamlik, o‘zaro ko‘mak, savob va ma’naviy burch kabi qadriyatlarga tayangan holda tashkil etiladigan ko‘ngilli, bepul jamoaviy mehnat shakli sifatida talqin qilinadi.

Shuningdek, halollik va ishonchlilikni saqlash konsepti o‘zbek tadbirkorlik madaniyatining markaziy komponentlaridan biridir. Har bir kelishuvga qat’iy amal qilish, xizmat va mahsulot sifatiga mas’uliyat bilan yondashish milliy etik me’yorlarga asoslangan mehnatsevarlik va vijdonlilik fazilatlarini ifodalaydi. Nihoyat, mijozlar va hamkorlarga xushmuomalalik bilan yondashish tamoyili o‘zbekona odob, mehmondo‘stlik va e’tibor ko‘rsatish orqali ifodasini topadi. Mijoz ehtiyojlarini tushunish, ularning muammolariga tezkor va to‘g‘ri javob berish o‘zbek biznes madaniyatida xizmat ko‘rsatishning ijtimoiy mas’uliyat bilan chambarchas bog‘liqligini anglatadi. Shu tariqa, “ishbilarmonlik” konsepti o‘zbek milliy tafakkurida na-

[1] Hojiyev A. Hozirgi o‘zbek tili faol so‘larining izohli lug‘ati. Toshkent, “Sharq” nashriyoti, 2001, 76-bet.

faqat iqtisodiy, balki ma'naviy-axloqiy qadriyatlar bilan uyg'unlashgan kompleks hodisa sifatida namoyon bo'ladi.

**Xulosa.** Darhaqiqat, o'zbek paremiyalarida "ishbilarmonlik" konsepti jamoatchilik, mehnatsevarlik, halollik, to'g'riso'zlik, aniqlik(fikr, gap, vaqt, makon) va o'zaro ishonch, muomala madaniyati, rizq-nasiba, mas'uliyat, samaradorlik, uddaburonlik, qiyionchilikka chidamlilik, rejalilik, me'yorni bilish, imkoniyatdan unumli foydalanish, naqd va nasiya pul bilan ishlash, tejamkorlik va ehtiyotkorlik va kabi lingvokulturologik belgilar orqali ifodalanib, xalqning iqtisodiy amaliyoti bilan bir qatorda, uning ma'naviy olamining ham muhim qismiga aylangan.

**Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:**


(1). Berdiyorov H., Rasulov R. (1984). O'zbek tilining paremiologik lug'ati. Toshkent, "Fan".

(2). Hojiyev A. Hozirgi O'o'zbek tili faol so'zlarining izohli lug'ati. Toshkent, "Sharq", 2001, 76-bet.

(3). Jo'rayeva B. (2022). O'zbek tilshunosligida paremiologiya. Uzresearchers Konferensiyalari. https:// uzresearchers. com/ index.php/ Conferences/article/view/3122.

(4). Liu Yue. (2023). The linguocultural potential of proverbs expressing attitude to labor. https://disser.spbu .ru/files/2023/disser_en_liu_yue.pdf.

(5). Mirzayev T., Musoqulov A., Sarimsoqov B. (2016). O'zbek xalq maqollari (tuzuvchilar: Mas'ul muharrir: Sh. Turdimov. T., «Sharq», 22-bet.

(6). O'zbek tilining izohli lug'ati. (2022). Toshkent, O'zbekiston Milliy ensiklopediyasi..

https://journaltersu.uz/index.php/pr/article/download/75/71/213.

https://www.interaktiv.oak.uz/avtoreferat/3aO8124fO1.file.

https://jdpu.uz/en/english-linguo-culturological-aspects-of-studying-uzbek-phraseology/.

https://n.ziyouz.com/portal-haqida/xarita/uzbek-xalq-ogzaki-ijodi/uzbek-xalq-maqollari/jamoatchilik-va-xudbinlik-haqida-maqollar.



**Кадимова Диана Рашидовна (доцент, Самаркандский государственный университет, Институт языков и культуры народов Центральной Азии),**

**Муродуллоева Севара Исматулло кизи (магистрант, Самаркандский государственный университет, Институт языков и культуры народов Центральной Азии; e-mail: d.kadimova@gmail.com)**


## КОНЦЕПТ «ЛЮБОВЬ» В ЛИНГВОКУЛЬТУРОЛОГИЧЕСКОМ АСПЕКТЕ НА МАТЕРИАЛЕ ПРОИЗВЕДЕНИЙ РУССКОЙ ЛИТЕРАТУРЫ


***Аннотация.*** *В статье рассматривается концепт «любовь» в лингвокультурологическом аспекте на материале русской литературы. Любовь выступает ключевым культурным и языковым феноменом, через который отражаются ценности, нормы, мировоззрение и эмоциональная жизнь общества.*



***Ключевые слова:*** *концепт, любовь, лингвокультурология, русская литература, метафора, фразеологизм.*



**Kadimova Diana Rashidovna (dotsent, Samarqand davlat universiteti, Markaziy Osiyo xalqlari tillari va madaniyati instituti),**

**Murodullayeva Sevara Ismatullo qizi (magistrant, Samarqand davlat universiteti, Markaziy Osiyo xalqlari tillari va madaniyati instituti; e-mail: d.kadimova@gmail.com)**


## RUS ADABIYOTI ASARLARI MATERIALLARI ASOSIDA "MUHABBAT" KONSEPTINING LINGVOKULTUROLOGIK JIHATI


***Annotatsiya****: Ushbu maqola rus adabiyotidan foydalanib, "sevgi" tushunchasini til madaniyati nuqtayi nazaridan ko'rib chiqadi. Muhabbat jamiyatning qadriyatlari, me'yorlari, dunyoqarashi va hissiy hayotini aks ettiruvchi asosiy madaniy va lingvistik hodisadir.*



***Kalit so'zlar:*** *tushuncha, muhabbat, lingvokulturologiya, rus adabiyoti, metafora, frazeologik birlik.*



**Kadimova Diana Rashidovna (Associate Professor, Samarkand State University, Institute of Languages and Cultures of the Peoples of Central Asia),**

**Murodulloyeva Sevara Ismatullo qizi, Master's Student (Samarkand State University, Institute of Languages and Cultures of the Peoples of Central Asia; e-mail: d.kadimova@gmail.com)**


## THE CONCEPT OF "LOVE" IN THE LINGUOCULTURAL ASPECT BASED ON THE WORKS OF RUSSIAN LITERATURE


***Annotation.*** *This article examines the concept of "love" from a linguacultural perspective, using Russian literature as a reference. Love is a key cultural and linguistic phenomenon, reflecting the values, norms, worldview, and emotional life of a society.*



***Key words:*** *concept, love, linguoculturology, Russian literature, metaphor, phraseological unit.*